

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING KREATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISH

Shuhratova Dilfuza

Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7434284>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativ salohiyatini shakllantirishning mazmun mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, kreativ salohiyatini amalga oshirishni o`ziga xos xususiyatlari va o`quvchilarni kreativ fikrlashga o`rgatishning afzalliklari haqida ham so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Shaxs, o`quvchi, ta`lim, tarbiya, kreativ salohiyat, tasavvur, tafakkur, g`oya.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье раскрывается содержание формирования творческого потенциала учащихся начальных классов. Также говорится об особенностях реализации творческого потенциала и преимуществах обучения студентов творческому мышлению.

Ключевые слова: Человек, ученик, воспитание, обучение, творческий потенциал, воображение, мышление, идея.

FORMATION OF CREATIVE COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article reveals the content of the formation of the creative potential of primary school students. It also talks about the features of the implementation of creative potential and the benefits of teaching students creative thinking.

Keywords: Man, student, education, training, creativity, imagination, thinking, idea.

Bugungi svilizatsiya kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo`layotgan o`zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Kreativlik - bu shaxsning individual xususiyati bo`lib, madaniy vositalarni shaxsiy tushunchalaridan kelib chiqqan holda qo`llashi va rivojlantirishidir. Kreativlik psixologik nuqtayi nazardan tahlil etilgan va bugungi kunda pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etishni talab etayotgan muhim pedagogik muammodir. Kreativlik-bu o`quvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi. Kreativlik o`quvchilarining shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki o`quvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo`lmash ekan, bunday o`quvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi. Turli xil muammoni o`quvchining o`zi mustaqil holatda bajarish jarayonida uchragan muammolarni yengishda o`quvchining kreativlik salohiyati shakllanadi, ijodiy qobiliyatları rivojlanadi. Kreativ salohiyat tushunchasi murakkab va serqirradir. Kreativlik-o`quvchilarda o`z-o`zidan paydo bo`ladigan sifat emas, u o`quvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o`zlashtirishi va o`zining kundalik faoliyatida qo`llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o`z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olishi bilan bog`liqdir. O`quvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyojlar, yo`nalishlar va «Men» kontseptsiya»laridan kelib chiqadi. Ta`lim olish kengligida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi. Shaxsning kreativligini psixolog olimlar o`quvchilarining insho yozishlari jarayonida tahlil etishga harakat qilishgan. Hamda quyidagi

ishlar amalga oshirilgan. Yosh avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan, komil shaxs sifatida shakllantirishda o`qituvchilarning ijodkorligi, o`z sohasi bo`yicha bilimlarini doimo oshirib borishi, so`nggi yangiliklarni o`zining pedagogik faoliyatida qo`llay olishlari, bir so`z bilan aytganda ularning kreativlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kreativlik ayniqsa O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasidagi strategik yo`lida juda ham muhimdir. Kreativ salohiyatga ega o`quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o`zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga kreativ va mustaqil yondashadilar. Shu kreativ salohiyat jamiyat a`zolari bilan muomalada bo`lishi, munosabat o`rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlardan biridir. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini kreativ salohiyatini takomillashtirishda uning psixologik holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, insonning ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va h.k.), hayotda o`z o`rnini topa olishi, uning vatan, xalqning ravnaqi yo`lida og`ishmay, e`tiqod bilan xizmat qilishi, iymonli bo`lishi insonni shaxs darajasiga ko`taradi. Bunday sifatlarning ro`yobga chiqishi tarbiyaga bog`liq bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchisining kreativ salohiyatini takomillashtirish mobaynidauning o`sishi, qandaydir yangi xotiraning mahsulorligini oshirish uchun ta`lim jarayonida o`zini-o`zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Boshlang`ich ta`lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta`lim turlaridan biri bo`lib, ta`limning bu bosqichida pedagog o`qituvchilarga kata ma`suliyat yuklatiladi. Ya`ni boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi xali maxsus o`rganishni talab etmoqda

O`quvchilar o`z-o`zidan kreativ bo`lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma`lum bir vaqt ichida izchil o`qib-o`rganish, o`z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Bu rivojlanish jarayonida albatta boshlang`ich sinf o`qituvchisining roli kata ahamiyatga ega bo`ladi. Kreativ qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va ularni shakllantirish uchun avvalambor o`quvchining fikrlash doirasini ya`ni ongini mukammal darajada o`stirishga harakat qilish lozim. Chunki fikrlash doirasi keng bo`lgan bolada fantaziyalar, yangi g`oyalar, kashfiyotlar yaratishga intilish juda kuchli tarzda rivojlanib boradi. Ayniqsa boshlang`ich sinf o`quvchilarining hozirgi globallashuv davrida zamonaviy texnologiyalar orqali kreativlikka qiziqish bilan intilayotganliklarini guvohi bo`lishimiz mumkin. Shu sababli ham bolani boshlang`ich sinf davridan mustaqil fikrlashga hamda o`z fikrini bemalol bayon qila olishlikka o`rgatib borilishi, uning ongini o`stiruvchi mashg`ulotlar tashkil qilinishi maqsadga muvofiq keladi. O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasini isloh qilishdagi say harakatlarining biri – bu o`quvchilarning zamon talablariga xamnafas tarzda ta`lim olishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxs bo`lib yetishishida chuqur bilim egallahshlarini talab etmoqda. Bu esa o`z navbatida o`quvchilarning kreativlik salohiyatini shakllanishiga turki bo`ladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida to`rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli-xarakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga nazar tashlasak har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelish mumkin: virtual reallik, to`rtburchak tarvuzlar, elektron xizmatlar, tuproqsiz hosil olish... bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsulidir. Odatiy bo`lib tuyulgan kitob, musiqa, samolyot va hattoki lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo`lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi natijasida yaratilgan. Bu esa o`z-o`zidan ta`lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o`rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi,

kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda: kreativ salohiyat deganda o'quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o'zлari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar degan fikr yetakchilik qiladi. Kreativlik xususida gap borar ekan, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, xis-tuyg`ularida, xatti-xarakatida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorlikning muhim omili sifatida ham aks etadi. CHunki har bir inson ham o`z dunyoqarashi va bilimiga asoslangan holatda faol bo`lishga intiladi. Qolaversa, kreativlik zehni o`tkirlikni belgilab beradi, o'quvchilarning diqqat-e`tiborini ta`lim jarayoniga faol jalb etishni ta`minlaydi. SHundan kelib chiqib zamonaviy ta`lim sifatini oshirish, ta`lim muassasalarida taxsil olayotgan o'quvchilarning o`quv faoliyatini samarali tashkil etish muammosi, zamonaviy o`qitish usullaridan keng foydalangan holda o'quvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish davr talabidir.

REFERENCES

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch.Ma`naviyat-2008
2. T. G'afforova, SH. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova O'qish kitobi 2-sinf. Toshkent — 2018.20-b
3. Egamberliyeva N., Xodjaev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. T.: —Fan va texnologiya, 2013.
4. Sharipov SH. O`quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta`minlashning nazariyasi